O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH



BUXORO – 2020

Ushbu metodik qo‘llanma umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘qish darsi orqali o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantirishda pedagoglarga metodik yordam sifatida tayyorlandi.

Tuzuvchi:

Aslanova Nozima Xakimovna – Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o’qituvchisi

Taqrizchilar:

B.R.Adizov – Buxoro davlat universiteti, p.f.n, professor

S.S.To’rayeva - Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o’qituvchisi

Ushbu metodik qo‘llanma Buxoro viloyati XTXQTMOHM ilmiy kengashining 2020 yil __ _____dagi ___-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

So’z boshi

Boshlang’ich sinflarda o’qitilayotgan ona tili o’qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o’qish va nutq o’stirish bo’limida o’tkaziladigan mashg’ulotlar mazmuniga; o’quvchilarni to’g’ri, ravon, ma’lum darajadagi tezlik bilan ifodali o’qishga o’rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g’oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o’quvchilarning bilim, ko’nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi. O’qish darslarini kuzatishlarga suyanib, hayotga bog’lab o’tish uning ta’sirchanligi va ongli idrok etilishini ta’minlaydi. Shuningdek, boshlang’ich sinflarda o’qish darslari yuqori sinflardagi o’zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o’zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang’ich sinflardagi o’qish darslarining sifatiga jiddiy e’tibor berish talab qilinadi. Metodik tavsiyada o’qish va sinfdan tashqari o’qish darslarini tashkil etishda o’quvchilarning nutqiy ko’nikmalarini shakllantirishning usullari keltirilgan.

B.R.Adizov – Buxoro davlat universiteti, p.f.n, professor

SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Miromonovichning **“Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”** (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyishi e’lon qilindi. Мазкур фармойиш китоб, китобхонлик маданиятининг жамият маънавий ҳаётидаги ўрни ва ролини яна бир янги босқичга кўтарганлиги билан изоҳланади. 2017 yil 13 sentabrda qabul qilingan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirish o’qituvchilar zimmasiga mas’uliyatli vazifalarni qo’ydi. Bu vazifalar jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi hamda o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

O’qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o’qituvchi asosan quyidagilarga e’tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo’ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyim harakatda, xayoli o’yinda bo’ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilar. Shu tufayli bu sinflarda ta’lim-tarbiya vazifalari, asosan o’yin, musiqali, qisqa muddatli qiziqarli suhbatlar, hikoyalash va ifodali o’qish orqali amalga oshiriladi. Shu xususiyatlarni qamrab olgan holda boshlang‘ich sinflarida o‘qish fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

- ✓ milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;
- ✓ o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ma’naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Boshlang’ich sinf (1-4-sinf)lar da o‘qish fanini o‘qitishning asosiy vazifasi quyidagilar sanaladi:

- ✓ o‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, nutqiy kompetensiyani o‘stirish;
- ✓ yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o‘qitilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko‘rsatkich – o‘qish tezligi, ongli va ravon o‘qish, bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Dasturdan o‘rin olgan Vatan mavzusidagi asarlar o‘quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo‘lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

1-sinfning o‘quv yili oxirida bolalar Vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlari haqida kichik-kichik asarlarni o‘qiydilar.

2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo‘lmagan Vatan, ona tabiat, istiqlol, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

3- va 4-sinflar o‘qish dasturida mavzular ko‘lami ancha kengayadi. Bu sinflarda o‘qish darslarining kattagina qismi asarni o‘qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo‘lib o‘qish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish,

qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og‘zaki hikoya tuzdirish kabi ijobiy topshiriqlardan foydalanish kabi ishlar amalga oshiriladi.



Bu vazifalar nafaqat sinfda o’qish, balki **sinfdan tashqari o‘qish** darslari bilan bog‘liq holda olib boriladi. Sinfdan tashqari o‘qish mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘limga ajratiladi:

Birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi.

Ikkinchi bosqichda shu o‘quv materiallar asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. O‘quvchilar kitob va ularning mualliflari haqidagi bilimlarni sinfdan tashqari o’qish darslarida tashkil etiladigan amaliy faoliyat, ya’ni kitob va badiiy asar ustida ishlash jarayonida egallaydilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, keyinroq **yozuvchilarning asarlari bilan tanishadilar**, so‘ngra bolalarning **qiziqishlariga mos**,

ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o‘tadilar.

O‘quvchilar milliy va jahon adabiyoti namunalarini o‘qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Asarlardagi qahramonlar va voqealarga ongli munosabat bildirish hamda o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratiladi. Mutolaa orqali o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqi ham rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi esa – o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o‘qiydigan, o‘qilgan kitobni to‘g‘ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalashdan iborat. 1959 yildan boshlab maktablarda sinfdan tashqari o‘qish darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning tasavvur va tafakkurlarini, og‘zaki va yozma nutqi, ifodali o‘qish malakalari, lug‘at boyligi rivojlantiriladi.

2019 yilda 1-4 sinf yoshidagi bolalar uchun “Maktab kutubxonasi" turkumidagi "Kitobim-oftobim" nomli jami 4 ta kitobdan iborat sinfdan tashqari o‘qish kitoblari nashr etildi. Har bir kitob majmua xarakteridagi asarlar to‘plamidan iborat bo‘lib, unda taniqli bolalar yozuvchi va shoirlari qatorida yosh ijodkorlarning ham maktab dasturiga kiritilmagan qiziqarli asarlari jamlangan. Kitobda jamlangan asarlardan o‘quvchilar mustaqil o‘qish uchun, ota-onalar bolalar bilan ishlashda, ularning

bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, badiiy asarlarni ko‘proq o‘qishga yo‘naltirishda foydalanishlari mumkin.



O’qish faniga oid kompetensiyalardan o’quvchilar:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*).

A1

- ✓ ixcham matn asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna oladi;

- ✓ ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo‘shiqlari, hikoya, she’rlarni o‘qib tushunadi va mazmunini qayta so‘zlab bera oladi;
- ✓ yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz eta oladi;
- ✓ matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq, ravon o‘qiy oladi;
- ✓ bir daqiqada 50 — 55 so‘zni o‘qiy oladi;
- ✓ monologik va dialogik nutqda o‘z fikrini aniq ifodalay oladi;
- ✓ o‘rganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
- ✓ maktab kutubxonasidan foydalana oladi;
- ✓ kichik hajmdagi 8 — 10 ta she’rni yoddan aytib bera oladi.

A1+

bir daqiqada 55 — 60 so‘zni o‘qiy oladi;

asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

kichik hajmdagi 10 — 12 ta she’rni yoddan aytib bera oladi.

O‘quvchi har bir yangi asar bilan tanishish jarayonida, uning mazmun-mohiyatini tushunishi uchun nutqi ravon bo‘lishi, ifodali o‘qishi, nutq texnikasini egallashi zarur.

1. Nutq texnikasi - ifodali o‘qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a’zolari faol ishtirok etishini kuzatib, ularga to‘g‘ri ko‘rsatma beriladi. Nutq a`zolarini faollashtirishga ko‘maklashuvchi mashqlar majmuasiga nutqni sakllantirish deyiladi

2. Diksiya - lotincha “dictio” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘zlarni aniq, burro talaffuz qilish” degan ma’noni anglatadi. O‘quvchilar diksiyasida

so‘zlarni oxirgi tovushlarini chala-yarim talaffuz qilish hollari ko‘p uchraydi. Davomli mashqlar bu kamchilikni bartaraf etishga yordam beradi.

3.**Pauza (to‘xtash).** Bolalar gapirish jarayonida ma’lum darajada qisqacha to‘xtab, nafas oladilar va o‘pkalarini qayta havoga to‘ldirib, nutqini davom ettiradi. Nutqdagi ana shunday to‘xtash pauza deyiladi.

4. Intonatsiya. Ma’lumki, nutq tafakkur mahsulidir. Kishi fikri yoki maqsadini ikkinchi bir kishiga so‘zlar vositasida yetkazib, o‘zaro fikr almashadi, kayfiyatini ifodalaydi. Fikr tuyg‘ular, maqsad-intilishlar, his-hayajon boshqalarga ovoz orqali yetib boradi. Shuning uchun ham ifodali o‘qish jarayonida intonatsiyaning ahamiyati katta.

5. Temp va ritm. Olamda hayot mavjud ekan “hayot bor joyda harakat bor, harakat bor joyda- qimirlash, qimirlash bor joyda ritm bor”. Demak, hayot va mehnatni ma’lum temp va ritmsiz tasavvur etish mumkin emas. Mehnat ma’lum bir me’yorda takrorlansa, inson aslo charchamaydi. Shuning uchun ham mehnat jarayonida tovushlar ohangi ish-harakatga hamohang bo‘ladi.

Adabiy – nutqiy ko’nikmalarga (*tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish*) ega bo’lish uchun turli interfaol usullardan foydalanish samarali natija beradi.

Nutqni **tinglab tushunish** - ovozli nutq (gapirish) chog`ida quloq solish, idrok etish va fahmlashdir. Odatda inson ma’naviy kamolotga eshitish, ko’rish (kuzatish), qolaversa, o’qish tufayli erishadi. Axborot to’planishida uchala faoliyat orasida tinglab tushunish eng muhim. Nutq faoliyatining turi va malaka hisoblanmish tinglab tushunish ta’lim

maqsadi va vositasi ekanlign ma’lum. Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi.

1. **Tinglovchiniig o’ziga bog`liqliq**.
2. **Eshitish malakasining rivojlanganligi**, xotirasi, diqqati xususiyatlari, tinglash shart — sharoiti nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so’zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi
3. **Qo’llangan materialning lingvistik jihatlari** (tinglovchi til tajribasiga mos kelish—kelmasligi) hisobga olinadi.

OG'ZAKI BAYON QILISH- (ma'ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash) o’quvchilarda nazariy va daliliy bilimlarni shakllantirish jarayonida keng qo'llaniladi. O'qituvchi va o’quvchilar o'rtasida og'zaki ma'lumot almashinuvi ta'minlanadi. O’quvchilarni faktlar, g'oyalar bilan tanishtirish asosan tayyor shaklda amalga oshiriladi. Muammoli vazifalarni shakllantirish va hal etishga, izlanuvchan ijodiy xarakterdagi vazifalarni bajarishga, o’quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, bilim mustaqilligi va faolligiga yetarlicha e'tibor berilmaydi.



HIKOYA - epik turdagi adabiyotning kichik shakli; kichik nasriy asar. Hikoya syujetli va ziddiyatli bo'lib, kamroq hujjatli, ba’zan unda

fantastika ham mavjud bo’ladi. Tarkibiga qarab hikoyalar ikki turga bo'linadi: qissa va badiiy hikoyalar. Hikoyaning o'ziga xos xususiyatlari - bu kam sonli belgilar, oz tarkib, bitta voqeadan iborat ekanligidadir. Shu sababdan o’quvchi qayta hikoyalashda qiynalmaydi. Ularda nutq ko’nikmalari o’ tasavvuri asosida shakllanib boradi.

Maktab tajribasida **to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish** turlari farqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o‘qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

To‘liq qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli, o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba’zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u o‘quvchini fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga,

ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O‘qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni o‘quvchilar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratliligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi o‘quvchining fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja xattaxtaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o‘zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o‘qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning yengilroq shaklidir. Bunda hikoyaning asosiy syujeti

O‘qilgan asar mazmunini o‘zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich **qisqartirib hikoyalash** hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo‘linadigan, bu bo‘limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o‘rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o‘qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo‘ygan qismini o‘qiydi va o‘quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o‘quvchilar ba’zan asardagi so‘zlardan foydalanadilar. Bu o‘quvchilarga qiyinlik qilsa, bo‘limdagi asosiy fikrni o‘z so‘zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o‘quvchilar o‘qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o‘quvchilar asarni qisqartirib qayta

hikoya qiladilar. O‘qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga 2- sinfdan boshlab o‘rgatiladi.

Tanlab hikoyalash ham o‘quvchilarning tafakkuri va nutqini o‘stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o‘quvchi:

1) o‘qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so‘zlab beradi;

2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;

3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yo‘nalishida so‘zlab beradi.

O‘quvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang‘ich sinf izohli o‘qish darslarida keng qo‘llaniladigan metodik usullar yordam beradi:

1) hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;

2) hikoyadati bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;

3) tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.



O‘quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o‘qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil o‘quvchilar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o‘stiradi va o‘qilgan matn mazmunini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Hikoyani o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilarning nutqiy ko’nikmalarini va tafakkurini o‘stiradi. Bular:

1) ijodiy qayta hikoyalash;

2) inssenirovka qilish;

3) o‘qilganasarga rasm chizish;

4) hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini o‘zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirib hikoya qilish ham mumkin.

Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnabop qilib o‘zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kostyum, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o‘ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o‘rgatish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi).

O‘qilgan hikoyaga rasm chizishda o‘quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o‘qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o‘zi rasm chizadi. Agar o‘quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o‘zi chizmoqchi bo‘lgan rasmni og‘zaki tasvirlab beradi, ya’ni so‘z bilan chizadi.

O‘qilgan **hikoyani davom ettirish usuli** maktab tajribasida keng qo‘llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo‘llaniladi.

SUHBAT - ta’limning dialogik metodi bo‘lib, savol-javob o‘tkazish, o‘z nuqtayi nazarini ifodalashni talab etadi. Suhbat bolalar uchun narsa-hodisalar, voqealar to‘g‘risida ayrim bilim va tajribalarga ega bo‘lgan holatda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida bolalarning mavjud bilimlari aniqlashadi, boyiydi, tizimlashtiriladi. Suhbatda ishtirok etish bolalar uchun foydali qator ko‘nikma va malakalami paydo bo’ladi: bir-birini tinglash, aytilganlarini to‘ldirish, ularni takrorlamaslik, bildirilgan fikrlami samimiy baholash va boshqalar. Suhbat fikming aniq yo‘nalganligini, diqqatni va o‘z xulq-atvorini boshqara olishni talab etadi. U mantiqiy fikr yuritish, aniq fikr bildirish, xulosa qilishga o‘rgatadi. Suhbat orqali o’qituvchi bolalarda his-tuyg‘ulami tarbiyalaydi, fikr yuritilayotgan voqea - hodisaga munosabatni tarkib toptiradi. Mazmuniga ko‘ra ikki turdagi suhbat farqlanadi: axloqiy mavzudagi va bilishga doir. Axloqiy mavzudagi suhbatlar faqat katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladi, bilishga doir suhbatlami esa 7 yoshdan boshlab o‘tkazish mumkin. Axloqiy mavzudagi suhbatlar bolalarda axloqiy his-

tuyg‘uni tarbiyalash, axloqiy tasawur, mulohaza va bahoni shakllantirish maqsadini ko‘zda tutadi. Turli mavzularda axloqiy suhbatlami o‘tkazish mumkin: **«Xushmuomalalik», «Do‘stlik», «Salomlashish odobi», «Ovqatlanish qoidalari», “Kiyinish odobi”** va boshqalar. Bilishga doir suhbatlar mavzusi maktabgacha ta’lim dasturlarida aniqlab berilgan. Shuningdek, bunday suhbatlar kundalik turmush voqealari, atrof-muhit va kattalar mehnati bilan ham chambarchas bog‘liqlikda o‘tkaziladi.

TUSHUNTIRISH - o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab hikoyalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda ko‘rgazmali vositalardan, rasm va mulyajlardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

MUNOZARA - 1) bahs, fikrlar tortishuvi; 2) mumtoz adabiyotda keng Tarqalgan janr. Fikrlar kurashi shaklida yozilgan badiiy asar. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko‘pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar.

KITOB BILAN ISHLASH – Bu metod maktabda barcha darslarda kitobdan foydalanish davomida amalga oshiriladi. Avvalambor, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyati shakllantirilishi zarur. Ho‘sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular: o‘zining bilimlarini hamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish; kitob ustida ishlash malakasini

obdon o‘rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o‘qiy bilish; o‘qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o‘qiganlaridan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko‘chirib olish, notanish bo‘lgan so‘zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do‘stiga munosabatda bo‘lganday e’tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o‘ylab, diqqat-e’tibor bilan o‘qish malakasiga ega bo‘lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o‘rganish; o‘qigan kitobni do‘stlar bilan o‘rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o‘qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal’asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta’minlash.



Kitoblar va o`quv adabiyotlari bilan ishlash ko`nikma va malakalarini shakllantirish mustaqil ta'lim olishning asosiy ko`rinishi hisoblanadi. O`quv adabiyotlari bilan ishlashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o`zlashtirgan bo`lishlari lozim. O`quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o`quv qo`llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo`riqnomalar va x.k. tushunish mumkin.

Darslik o’quvchilarga chuqurroq bilim olish va materialni yoki uning qismlarini mustahkamlash uchun ushbu materialni takrorlash imkonini beradi.

Haqiqatdan ham dars jarayonida darslik bo`yicha materialni mustaqil ravishda o`rganish bo`yicha topshiriqlar vaqti - vaqti bilan bo`lib tursa, o’quvchilarda kitob bilan ishlash mahorati va ko`nikmalarini rivojlantiradi. Darslik bilan mustaqil ishlashni haddan tashqari ko`p hajmda uyga vazifa sifatida yuklatilsa, ortiqcha zo`riqishga olib keladi. Bu o’quvchida fanga bo`lgan qiziqishni kamaytiradi. Shuning uchun darsliklar bilan ishlash va boshqa o`quv adabiyotlari bilan tanishtirish mustaqil ishlash mahoratini va ko`nikmalarini shakllantirish ishlari o`qituvchi tomonidan o`qitishning hamma bosqichlarida: ya'ni yangi mavzuni tushuntirishda, bilimlarni oshirish va mustahkamlashda va uy topshiriqlarini tekshirishda olib borish kerak. Kitob bilan mustaqil ishlash ko`nikmalarini egallashda o’quvchi: matnlardan, rasm va ko`rgazmali qurollardan, jadval va xaritalardan asosiysini ajratib olishni; ma'lumotlarni o`zlashtirishda mantiqiy aloqadorlik va bog`liqliklarni aniqlashni; o`rganilayotgan hodisalarni taqqoslashni, darsliklarning bir yoki bir necha qismlari bo`yicha umumlashtirish va xulosa chiqarishni bilishlari kerak.

O’qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo’ladi, o’qishni bilmagan odamning dunyoqarashi tor bo’ladi. Boshlang’ich sinfda o’qish faoliyati barcha fan darslarida amalga oshiriladi. Masalan, eski maktablarda o’qish quruq yod olish metodida o’rganilgan bo’lsa, hozirgi kunda maktablarda o’qish **izohli o’qish** metodiga asoslanib olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so’zlarga izoh berishga,

mazmunini tushuntirishga, o’qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o’qishning ongli bo’lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko’proq to’g’ri talaffuzga, qiroat bilan o’qishga, ifodali o’qishga katta e’tibor berilgan. Ongli o’qish orqali inson tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti, ularning o’tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati; ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egalaydilar. Ularga nisbatan munosabat uyg’onadi, o’quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi.

Fikrni yozma bayon qilish - Yozma nutq – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir.



Yozma nutq – kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma’nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri.

Kitob o‘qish barchaning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi, so‘zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o‘zbek tilimizdagi ayrim vatandoshlarimiz “xizmati” tufayli dag‘allashib, kambag‘allashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o‘qish

lozim. Vaholanki, bizning o‘zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi. A.S.Pushkin butun ijodi davomida jami 21197 ta so‘z qo‘llagan bo‘lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq so‘z qo‘llanilgan. Ispan olimlari Servantesning ijodida 18 ming so‘z qo‘llanilgani haqida ma’lumot berganlar. **Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan so‘zlar soni esa 26000dan ortiq ekan.** Ana shuncha milliy boyligimizni avaylab-asrash uchun ham kitob o‘qish lozim. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Agar o‘qituvchi ijodkor bo‘lsa, ta`lim - tarbiya ishini tashkil etishda noodatiy yo‘ldan boradi, ya`ni u ishini odatdagi ishdan boshqacharoq boshlaydi. O‘z faoliyatida dars o‘tishning turli usullaridan foydalanib, zamonaviy darslarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abdullaeva Q. va boshq. 2-sinfda o‘qish darslari. –T.: O‘qituvchi, 2009. – 266 b.
2. Umarova M, Sh.Hakimova. O‘qish darslari (3-sinf uchun). – T.:Cho‘lpon, 2008. – 126 b.
3. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O‘qituvchi, 2003.
4. Qodirov P. Til va el.-Toshkent, 2010-127 bet
5. Qosimova K. ―2-sinflarda ona tili darslari‖, T. ―O‘qituvchi, 1998 yil.
6. G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish darslari. –T.:Sharq, 2003. – 126 b.